

“MU’IN UL-MURID” – AGIOGRAFIK ASAR NA’MUNASI SIFATIDA

Sulaymanov Zaxiriddin Ural o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: sulaymonovzaxiriddin@gmail.com

Tel: 93-303-77-94

Annotatsiya

Maqolada XIV asrda Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan nazmiy shaklda yozilgan “Mu’in ul-murid” didaktik asarining yozilish sabablari va janriy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Asarning muallifi borasidagi fikrlarga ilmiy munosabat bildirilgan. Shuningdek, agiografik yo‘nalishda yozilgan asarlardagi hikmat janriga ta’rif berilgan, o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar. Nazmiy didaktik asar, janr, agiografiya, hikmat, to‘rtlik, rivoyat, kompozitsiya.

Annotation

The article focuses on the reasons for writing and genre features of the didactic work "Mu'in ul-murid" written in verse form, created in the 14th century in Eastern classical literature. A scientific attitude was expressed to the opinions about the author of the work. Also, the genre of wisdom in the works written in the hagiographic direction is defined and its characteristics are revealed.

Keywords and phrases. Poem didactic work, genre, hagiography, hikmat, quatrain, narration, composition.

Аннотация

В статье рассматриваются причины написания и жанровые особенности написанного в поэтической форме дидактического произведения «Муин уль-мурид», созданного в классической литературе Востока в XIV веке. Высказано научное отношение к мнениям об авторе работы. Также определен жанр мудрости в произведениях, написанных в агиографическом направлении, и раскрыты его характеристики.

Ключевые слова и фразы. Тихотворение-дидактическая работа, жанр, житие, мудрость, четверостишие, повествование, композиция.

Biz maqolada XIV asrdagi musulmon agiografiyasiga oid “Mu’in ul-murid” asarini o‘rganishni maqsad qilib olganmiz, shu sababli bu davr adabiyoti bilan tanishib chiqsak. Agiografik asarlarni o‘rgangan B.Nazarov musulmon agiografik adabiyotining shakllanishi va rivojlanishini uch davrga bo‘lib o‘rganishni ma’qul deb topdi: “Birinci davr VIII – IX asrni qamrab oladi. Bu davr agiografiyasining asosiy xususiyati shuki, bunda hikoya qilinayotagan voqealar qamrab olingan davrga nisbatan yaqindir...shuningdek, diniy aqidalar ustuvor bo‘lgan... Ikkinchi davr X asrdan boshlanib, XII asrning birinchi yarmini qamrab oladi. Bu davr musulmon agiografiyasida birinchidan, turli tilda asarlar yaratila boshlandi, ikkinchidan, tarixiylik xususiyatidan ko‘ra badiiy to‘qima va rivoyatchilik xususiyati, ya’ni ideallashtirishga e’tibor kuchaydi...Uchinchi davr XIII – XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda musulmon dunyosi mo‘g‘ul bosqinchilari zulmini boshidan kechirdi va asta-sekin bu zulmdan ozod bo‘lib, madaniy hayot jonlandi, natijada agiografik adabiyotga ham yangidan ehtiyoj paydo bo‘lib, o‘tgan asrlarda yashagan shayxlar va avliyolarning hayoti haqida hikoya qiluvchi asarlar ko‘paydi” [1.23], shuning uchun biz obyekt sifatida aynan XIII – XIV asrlarga oid agiografik asarlarni tanlashimizning boisi, bu davrga mansub agiografik asarlarda badiiylik belgilari yuqori hamda adabiy-badiiy jihatdan tahlil qilish o‘zini oqlaydi. Bu davrda turk diyorida islom dini kengayishda davom etdi. XIII – XIV asrlarga kelib mehnatkash xalqning fikrini quruq va’zxonlikdan ko‘ra diniy-afsonaviy voqealarga tortish kuchaya boshladi. Oltin O‘rda adabiyotida muayyan ma’noda diniy asarlarning taraqqiy topishi tabiiy hodisa edi. Chunki endigina islomiy davlat taomiliga kira boshlagan mamlakat uchun o‘z aholisini pokiza e’tiqodga bag‘ishlovchi asarlar bilan ta’minlash zaruriy hodisa edi. Ma’lum syujet asosiga qurilgan turli-tuman naql-rivoyatlarni badiiy bayon etishga intilish nasriy asarlarning yuzaga kelishida muhim sabablardan biri bo‘ldi. Dinni xalq orasida keng yoyish vazifasini diniy mavzudagi badiiy-didaktik asarlar bajarib berdi. Oltin O‘rda adabiy muhitida yuzaga kelgan agiografik asarlardan biri – “Mu’in ul-murid”. Asarning muallifi kim ekanligi to‘g‘risida ikki xil qarash mavjud [2.186]. Ushbu masalaga fikr bildirgan holda asar muallifini Shayx Sharif Xo‘ja deb belgiladik, sababi asarning ko‘ngil va nafs bo‘limida quyidagicha to‘rtlik keltirilgan: Ko‘ngil nafs u ruh din natija erur

G'olib bo'lsa biri angar yuz urur

Biling bu bayon Shayx Sharif Xo'janing

Mabozi sulukda bitiglik turur [3.53].

Ushbu to'rtlik mazmunidan asar muallifi ayon bo'lmoqda.

Asar xalqni halollik ruhida tarbiyalash, islomiy e'tiqodlarni yoyish maqsadida dunyoga kelgan. Islom va so'fiylarning asosiy tamoyillari mavzusidagi asar XIV asrda Xorazm viloyatida dunyoga keldi. Asarning ilmga ma'lum bo'lgan yagona nusxasi Bursa shahridagi yozma va bosma eski asarlar saqlanadigan kutubxonada saqlanadi. Asar bilan turli yillarda Z.U.Tog'an, F.Koprulu, J.Ekman, A.Bodrogleti, A.Karamanoglu, N.Xalimov, Ch.Go'klenov, R.Toparli, M.Argunshoh kabi olimlar o'rgangan, o'z fikrlarini bildirgan. Kitob diniy-mistik mazmunda yozilgan 407 to'rtlikdan iborat, mutaqorib bahrida (faulun faulun faulun faul). Bu asar Turkiyada 2008-yilda Recap Toparli va Mustafa Argunshah tomonidan qayta o'rganildi va chop etildi [3.]. "Mu'in ul-murid" asari she'riy to'rtlik shaklida yozilgan bo'lsa-da, alohida bo'limlarga ajratilgan, har bir bo'limga nom berilgan. Asar an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi:

Shukur hamd iloho tuman ming sanga

Musulmon muvahhid yaratting manga

Elig tutg'uchi sen arig' bir-u bor

Tutulmishda qayu qatig' bir munga.

Ya'ni "Allohga ming shukrlar bo'lsinkim, meni Allohning birligiga ishonuvchi musulmon qilib yaratding" deb boshlandi. Keyingi bo'limlar: imon bo'limi; Alloh va uning payg'ambarini bilish haqidagi bo'lim; va'z va nasihat bo'limi; turli xil qonunlar haqida bo'lim; tayammum haqidagi bo'lim; zakot bo'limi; irodat¹ bo'limi; odoblar bo'limi; mos (tenglik) haqidagi bo'lim; suhbat bo'limi; shariat, tariqat va haqiqat bo'limi; ko'ngil va nafs bo'limi; suluk (tariqatga kirmoq) bo'limi; Allohga shukr etmoq va zikr qilmoq bo'limi kabi nomlangan va biz shu nomlanishdan ham bilishimiz mumkinki, asar tom ma'noda agiografik xarakterga mansub. O'zbek adabiyotida bu asar hali yetarlicha o'rganilmagan. Bu asarni o'rganish ham Xorazm turkchasini o'rganishda obyekt vazifasini o'taydi. Qaysidir jihatdan asar hikmatnavislikni davom ettirgan desak bo'ladi.

¹ Irodat – 1. Qasd, niyat, xohish, istak. 2. Muridlik uchun pirga qo'l bermoq, ya'ni o'z irodasini ustozga topshirmoq. Sharti irodat – muridlik sharti.

Bir qator tadqiqotlarda hikmatga quyidagicha ta'rif beradi: "**Hikmat** – fikrlash malakasining o'rta holda bo'lishi; tatbiq ila amalga oshuvchi, tajriba bilan erishiladigan to'g'ri bilim; Haqqa muvofiq so'z; hamma narsaning eng mukammali; hikmat Allohning lashkari bo'lib, u orqali Alloh avliyoning qalbiga quvvat bag'ishlaydi; tasavvufiy she'rlarga hikmat deyiladi. Hikmat – bilimdonlik, donishmandlik, falsafa, maxfiy sir, aql-u haqiqatga to'g'ri keladigan nozik ma'noli qisqa so'z, masal; ashyoning ahvolidan, zohiriy va botiniy kayfiyatidan bahs etuvchi ilm; axloq va haqiqatga doir foydali muxtasar so'z; Allohga itoat; aql, so'z va harakatdagi uyg'unlik" [4.47]. Ya'ni "Mu'in ul-murid" asari garchi to'rtliklardan tashkil topgan bo'lsa-da, lekin mazmuniy-mohiyat jihatidan hikmatlarga mos tushadi. Adabiyotshunos olim F.Ko'pruli: "X asrdan boshlab diniy-tasavvufiy asarlarga hikmat deyilgan" deb yozadi [5.119]. Shunday ekan, bu turdagi asarlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish bugungi tadqiqotchilarimizning oldida turgan vazifalardan biri bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Назаров Б.Н. Ислом агиографияси тизимида мақоматнинг ўрни ва унинг бадий-услубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақоматлари асосида). Филология фанлари докторлик дисс. – Тошкент: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2000. – Б. 23.
2. Т.Е. Қыдыр Дешті қыпшақ даласындағы ислами әдебиет (X-XV) (Ислам, иман және ихсан мәселелерінің жырлану ерекшеліктері): Монография – Астана: «Рухани құндылықтарды қолдау қоры» корпоративтік қоры, 2018. – 186 б.
3. Recep Toparli, Mustafa Argunşah. Mü'inü'l-mürîd. İnceleme-Metın-Çeviri-Dizin-Tipkibasım. ANQARA, 2008. 53 s.
4. Ҳасанов Н.Д. Султон Аҳмад Ҳазинийнинг "Жавоҳирул аброр мин амвожил биҳор" асари ва унинг яссавийшуносликдаги илмий-тарихий қиммати, ном. дисс... – Тошкент: 1999. – Б.47.
5. Koprulu F. a. g. e. S. 119.
6. Uludag S. Tasavvuf terimleri sozlugu. – Istanbul: Kabalchi, 1995.
7. Тўйчиев У. Адабий тур ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Эпос. – Тошкент: ФАН, 1992, 68-69 б.
8. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. 148-149 б.